

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2021 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosarlari: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Kasimbay Mamurov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Tolib Enazarov

Dialektal soʻzlarni aniqlashda dialektal matnlarning
leksik tahlili metodi.....6

Joʻra Xudoyberdiyev

Birinchi turkologiya qurultoyining chaqirilishi va maqsadi haqida.....18

Manzura Abjalova

Lingvistik ontologiya – leksik maʼlumotlar bazasi.....38

Zoxira Xidraliyeva

Oʻzbek tilining Iqon shevasi vokalizmini areal oʻrganishga doir.....54

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Qodirjon Ergashev

"Tarixi muluki ajam"ning uslubiy xususiyatlari.....41

Bahriddin Umurzoqov

Navoiy homiyligida ijod qilgan Koshifiylar.....50

Sanʼat

Oqilxon Ibrohimov

Mumtoz maqomlarning shakllanish tarixidan.....98

CONTENT

Linguistics

Tolib Enazarov

In Definition of Dialectal Words Method of Lexical Analysis of
Dialectal Texts.....6

Jura Khudoyberdiyev

About aims and Organization of the first Turkological Conference.....18

Manzura Abjalova

Linguistic Ontology - Lexical Database.....38

Zakhira Khidralieva

On the study of the Ikan dialectvocalism of the Uzbek language.....54

Literature. Translation studies

Qodirjon Ergashev

Methodological Features of "Tarihi Muluki Ajam".....41

Bahriddin Umurzoqov

The Kashifi's, Created Under the Auspices of Navo'i.....50

Art

Oqilkhon Ibrohimov

On the History of the Formation of Classic Maqoms.....98

O‘zbek tilining Iqon shevasi vokalizmini areal o‘rganishga doir

Zoxira Xidraliyeva¹

Abstrakt

O‘zbek shevalari murakkab tarkibga ega ekanligi adabiyotlarda aytilib kelinmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi o‘zbek shevalari yanada murakkabligi va o‘ziga xosligi, ya’ni turli guruhlariga aloqadorligi bilan ajralib turadi, jumladan, nisbatan kichik hududga ega bo‘lgan shimoliy o‘zbek shevalarida qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga taalluqli shevalar qayd qilinadi. Iqon shevasi esa o‘g‘uz lahjasi turkumiga kiradiki, bu sheva bo‘yicha tadqiqotlar Y.D.Polivanovdan keyin davom ettirilmay qolgan. Bu sheva haqida prof. Y. D. Polivanov maqolasi e‘lon qilinganiga deyarli bir asr o‘tdi, bu davr ichida shevada sekinlik bilan bo‘lsa-da, muayyan o‘zgarishlar yuz bergan bo‘lishi mumkin. Bu sheva to‘g‘risida Q.Muhammadjonov shimoliy o‘zbek shevalarini o‘rganish jarayonida ba’zi fikrlarni bildirgan, lekin uning tadqiqot obyektiga kirmagan. Ushbu maqolada Iqon shevasining unli va undoshlar tizimini regiondagi boshqa shevalar munosabatida, shevaga xos bo‘lgan fonetik xususiyatlarning boshqa shevalarda ham tarqalganligi, shevadagi fonetik jarayonlar, shevaga xos tovushlarning geografiyasi masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *sheva, lahja, adabiy til, fonema, tovush, old qator unli, orqa qator unli.*

Kirish

Ilmiy adabiyotlarda Iqon shevasi to‘g‘risida ayrim fikrlar aytilib kelinmoqda va bu sheva faktlariga ko‘plab murojaat qilinmoqda, lekin bu faktlar aslida bir asr oldin qayd qilingan bo‘lib, bu davr ichida bu sheva muayyan o‘zgarishlarga uchragan, lekin ta’kidlash kerakki, bu sheva boshqa o‘zbek shevalariga nisbatan o‘z betakrorligini, ya’ni o‘z tarixiy holatini asosan saqlab qola olgan. Bu sheva Janubiy Qozog‘iston o‘zbek shevalaridagi o‘g‘uz guruhiga taalluqli bo‘lib, uning shu arealda o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligi

¹Xidraliyeva Zoxira Riskulovna – mustaqil tadqiqotchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: xidraliyevazoxira@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-7976-1093

Iqtibos uchun: Xidraliyeva Z. R. 2021. “O‘zbek tilining Iqon shevasi vokalizmini areal o‘rganishga doir”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 4: 54–68.

bilan ajralib turadi va bu shevaning boshqa o'g'uz shevalari hamda regiondagi qarluq, qipchoq shevalari bilan munosabati masalasi ham o'rganishga muhtojdir. Demak, bu sheva ilmiy tadqiqotga muhtoj shevalar qatoriga kirishi bilan dolzarblikka ega bo'ladi. Maqolada asosan analiz va sintez usulidan foydalanildi, lekin o'rni bilan sheva faktlari atrof shevalar, jumladan, Turkiston qarluq va qipchoq shevalari bilan qiyoslandi hamda tarixiy faktlarga ham murojaat qilindi. Shu regionda sheva xususiyatlarining tarqalishi, ya'ni areali ham e'tiborga olindi.

Asosiy qism

O'zbek tilining Iqon shevasi hozirga qadar monografik tadqiqot obyekti bo'lgan emas. To'g'ri, bu sheva bo'yicha o'tgan asrning boshlarida prof. Y.D.Polivanov maqola e'lon qilgan va shu maqola keyingi ishlarda e'tiborga olingan, darslik va qo'llanmalarda shevalarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida gap ketganda foydalanilgan va tasniflar uchun asos bo'lgan. Bu sheva Janubiy Qozog'iston regionida boshqa areallariga (Qorabulq, Qoramurt, Mankent) ham ega bo'lgan. Hatto, prof. Y. D. Polivanovning taxminicha, bu sheva Buxoro viloyatining Olot va Qorako'l tumanlariga aholi migratsiyasi tufayli tarqalgan [Поливанов 1929, 529].

Ma'lumki, tilshunosligimizda o'zbek shevalari vokalizmining ayrim jihatlarini, ayniqsa, unli fonemalarning miqdorini belgilashda turlicha munosabatlar mavjud. Fonema va uning ottenkalari, xususan, kontrast juft fonemalar, ularning mutlaq cho'ziq va mutlaq qisqa variantlari mavjudligi haqida fikrlar yuritilib, ilmiy adabiyotlarda o'zbek shevalari vokalizmi 6ta unli fonemadan 18 taga qadar borishi to'g'risida fikr yuritiladi [Ashirboyev 2021, 32]. Jumladan, Y.D.Polivanov Iqon shevasining unli fonemalar tizimida ham miqdor va sifat jihatdan, ya'ni bir-biriga zid bo'lgan 18 ta unli fonema mavjudligini qayd etgan [Поливанов 1929, 528]. Shundan u 9 ta: **e, i, e (ɛ), ü(y), ö(ø), i(ɨ), a, u, o** fonemalarni sifat jihatdan farq qiladi, deb ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek dialektologiyasida fonema va tovush masalasi hal qilingan emas, ya'ni dialektologik ishda fonema o'rganiladimi yoki konkret nutq tovushlari o'rganiladimi, degan masalaga dialektologlarimiz ahamiyat bermay kelishmoqda. O'zbek dialektologiyasiga oid aksariyat ishlarda fonema termini tilga olinadi, lekin uning qanday belgilanganligi to'g'risida fikr aytilmay kelinmoqda. Iqon shevasi bo'yicha dastlabki axborotni umumlashtirgan Y.D. Polivanov fonema terminidan foydalangan, ammo uning nazariy asoslariga to'xtalmagan. Fonologiya bo'yicha o'z davrining yirik mutaxassisi bo'lgan bu shaxs, albatta, shevalardagi fonematik hodisalarni yaxshi tushunganligini e'tiborga olishimiz lozim, lekin u belgilag-

an fonemalar shevada qanday variatsiyalarga ega ekanligi to'g'risida ham ma'lumotlar berilishi zarur edi. To'g'ri, u unilarning 9 ta sifat farqlarini (kachestvenno-razlichnix) va jiddiy farqlanadigan 18 ta tovush tasavvurlarini (zvukopredstavleniya) belgilaydiki, aftidan, qisqalik va cho'ziqlikni ifodalovchi holatlarni fonema deb hisoblaganligi ko'rinib turibdi. O'zbek dialektologlarining shevalar fonetikasiga oid ishlarida fonema, tovush terminlari izohsiz qo'llanmoqda. Bizningcha, bu masalaning hal qilinishini fonologiya mutaxassislariga qoldirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, tovush tasavvurlari tushunchasini xotirada saqlanuvchi tovush obrazlari bilan tenglashtirish mumkin emas. Shuni e'tiborga olib, sifatli tovush tasavvurlari tushunchasini fonema uchun qo'llashni va Iqon shevasida 9ta fonema to'g'risida fikr yuritishni ma'qul ko'rdik.

i fonemasi. Bu unli old qator, yuqori tor, lablanmagan bo'lib, barcha bo'g'inlarda kela oladi: ichkari ~ *iš*, shirin ~ *širin*, chittak (qushning turi) ~ *čittäk*, tilim (*bir tilim*) ~ *tilim*, birinchi ~ *birinži*. Pozitsiyasiga ko'ra, urg'usiz bo'g'inda nisbatan qisqaroq talaffuz qilinadi: shirinlik ~ *čü:žik*, baland ~ *bä:jik*, maqtanchoq ~ *čä:ltik*, *kö:rindi*, *tikildi*, kiyindi ~ *kä:jindi*, *be:länqi* (beli mayib bo'lgan), yashir ~ *kizlä* va h.k. Bu unlini Y. D. Polivanov *it*, *käldi:dim* so'zlarida qayd qiladi [Поливанов 1929, 529]. Bu yerda u xatoga yo'l qo'yadi, ya'ni aslida *it* so'zi *i:t* tarzida yozilishi lozim edi, kelgan edim ~ *käldi:dim* so'zidagi (aslida *kä:di:dim* bo'lishi kerak edi – Z. X.) -*dim* affiksi tarkibidagi *i* unlisi to'g'ri berilgan.

i: unlisi. Bu unli, asosan, birinchi bo'g'inda va grammatik vaziyat talab qilgan o'rinda keyingi bo'g'inlarda ham kela oladi: iz ~ *i:z*, ish ~ *i:š*, tish ~ *ti:š*, tizza ~ *ti:zä*, tirildi ~ *ti:rildi*, nina ~ *i:nnä*, tinchlik ~ *ti:ščiliq*, *i:šlädi*, nimaga ~ *hi:*, egalik qildi ~ *bi:lädi*, tushgan edim ~ *čü:šdi:dim*, bilgan edim ~ *bildi:dim*, ketayotgan edi ~ *ke:djätti:di*. Bu unli Y.D. Polivanovning keltirgan *käldi:dim* so'zidagi ikkinchi bo'g'indagi *i:* unlisiga mos keladi.

i unlisi bilan quyidagi tovush mosligi yuz beradi:

i – e mosligi: jiyak ~ *že:k*, jiyan ~ *že:n*;

i – ä mosligi: kiyim ~ *käjim*, nasihat ~ *näsä:t*, mija ~ *mä:jä*, oyi ~ *a:ja*, miyoncha (patnis) ~ *mä:jänčä*, kichkina ~ *kiškänä*, kalish ~ *kälä:vüş*;

i – ü mosligi: kim ~ *küm*, chirik ~ *čürik*;

i – ö mosligi: chigirtka ~ *čökürtkä*.

ï fonemasi. Shevada *ï* unlisining orqa qator kontrast jufti sifatida mavjud. Bu unli orqa qator, yuqori tor, lablanmagan. Y.D. Polivanov uni *ï* grafemasi bilan belgilaydi [Поливанов 1929, 529] va orqa qator unli ekanligini ko'rsatadi. U bu qisqa unlini *a:riqtin čiqti*, *ašxa:nadin čiqti* so'zlarida qayd qiladi.

Ushbu fonema barcha bo'g'inlarda kela oladi. Shevada, asosan, chuqur til orqa **q, g', x** undoshlari bilan yondosh keladi va qattiq asosli so'zlarda barcha bo'g'inlarda boshqa undoshlar bilan ham kela oladi: qish ~ *qış*, qirq ~ *qırq*, qiyshiq ~ *qı:jšıq*, qirg'in ~ *qırğın*, bo'yin ~ *mo:jın*, xo'tik ~ *xo:dıq*, to:qim(ot-ulov abzali), yulg'un ~ *žınyıl*, čiyiriq (quduqdan suv tortish uchun qurilgan moslama), jigar ~ *ba:yır*, chelak ~ *ba:qır*, garmdori ~ *qızda:rı*.

Qır, xil, qılıq, shag'al ~ *čayır*, yostiql jildi ~ *žınt*, *ba:rdı*, *a:yası*, *ma:lı* kabi so'zlarda *ı* fonemasining qisqa talaffuz qilinadigan varianti ifoda etiladi.

ı: unlisi. Y.D. Polivanov uni faqat *qı:z* so'zidagina qayd qiladi. To'g'ri, u sanoqli so'zlardagina uchraydi: tentak ~ *xı:ra*, xina ~ *xı:na*, astar ~ *xı:ba*, ancha ~ *xı:la*, qichiq ~ *qı:jşıq*.

e fonemasi. Old qator, o'rta keng, lablanmagan unli. Ushbu fonema Y. D. Polivanov tomonidan *et, me:rap, me:man* [Поливанов 1929, 529] so'zlarida qayd qilingan, lekin uning ilmiy izohi berilmagan. Asosan, birinchi bo'g'inda keladi: *er, et, jem, jer, čet* kabi. Shuni aytish kerakki, shevada *er, et* so'zlarining *e:r, e:t* omonimik varianti bo'lib, birinchisi *er ~ erkakni*, *et ~ go'shtni*, ikkinchisi *e:r ~ erta(lab)*, *e:t ~ ayt(moq)* so'zlarining shevadagi talaffuzidir.

e unlisi bilan bog'liq tovush mosliklari:

e - a /ä: mosligi: *kel ~ kä:*, *etak ~ ä:täk*, *elak ~ ä:läk*, *teri ~ tä:ri*, *es ~ ä:s*, *kes ~ kä:s*, *eshak ~ ä:šäk*, *ters ~ tä:ris*, *teng ~ tä:η*, *kerak ~ kä:räk*, *temir ~ tä:mir*, *tepa ~ tä:pä*, *tezak ~ tä:zäk*, *teshik ~ tä:šik*, *kesak ~ kä:säk* va h.z. Ko'rinadiki, shevada *e* unlisining *ä* unlisiga o'tishi ko'p kuzatiladi. Lekin *te:räk, e:šik, keng ~ ke:η* (adabiy tildagi keling ma'nosidagi so'z *kän* tarzida fonetik o'zgarishga uchraydi), *be:l e:r, e:l, e:n* kabi so'zlarda nima uchun *e* unlisi *ä* unlisiga moslashmagani ma'lum emas, bizningcha Iqon shevasida *e* unlisining ushbu so'zlarda turg'unligi unga Turkiston qarluq va qipchoq shevalarining ta'siri deb qaralishi to'g'ri bo'ladi. Turkiston va Iqon shevalarining kundalik aloqalari uni ta'minlagan bo'lishi tabiiy.

e - i mosligi: *ber ~ bi, ye ~ ji, beka ~ bikä* (*qa:jimbikä*). Bu o'rinda *i* unlisi o'ta qisqa talaffuz qilinadi va u buyruq shaklidagina qisqalikni saqlaydi, lekin qo'shimcha qo'shilganda: *bermaysanmi - be:mä-jäsän-ä, yema - je:mäjmä* kabi so'zlarda bu xususiyat yo'qoladi.

e: unlisi. Bu ulining o'rni birinchi bo'g'in bo'lganligi uchun ham (pozitsiyasi mustahkam bo'lgan *e* unlisi to'g'risida gap boradi), u aksariyat o'rinlarda cho'ziq talaffuz etiladi: *el ~ e:l*, *erta ~ e:r*, *aytmoq ~ e:t*, *besh ~ be:š*, *kech ~ ke:š*, *tez ~ te:z*, *dugona ~ e:š*, *bel ~ be:l*, *terak ~ te:räk*, *sovchi ~ e:lči*, *eshik ~ e:šik*, *beshik ~ be:šik*.

ä fonemasi – old qator, quyi keng, lablanmagan unli. Y. D. Polivanov bu unli to'g'risida ma'lumot bermaydi, balki u *ε* unlisi

haqida fikr bayon qilib, uning Turkiston shevasidagi *æ* grafemasi bilan berilgan unidan kelib chiqqanligini ko'rsatadi hamda uning *a(ä)* va *e* unlisi o'rtasida talaffuz qilinishini aytgan holda, eston tilidagi *ä* unlisiga nisbatan old qator, ya'ni *æ* unlisiga yaqin deb qaraydi va Samarqand shevasida [Поливанов 1929, 535] *bä/lä* (*bälä*), *män* (*män*) so'zlarida uchrashini qayd qiladi, lekin uning Ozarboyjonning Ganja, uyg'urlarning Taranchi shevalariga ham xosligini belgilaydi [Поливанов 1929, 534]. Bu fikrlarga e'tiroz bildirmagan holda Y. D. Polivanov tadqiqot olib borgan davrdagi *ε* unlisining hozirgi davrda *ä* unlisiga to'la o'tganligini ta'kidlashni lozim topamiz. Ayni o'rinda Y. D. Polivanov ma'lumotlari asosida hozirgi adabiyotlarda Iqon shevasida *ε* (*e*) unlisining mavjudligi takrorlanmoqda [Ashirboyev 2021, 27] Bizningcha, bu unlining hozirgi Xorazm shevalarida ham mavjudligini qayta tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. To'g'ri, bu unli hozirgi Namangan shahar shevasida saqlanib qolmoqda [Ражабов 1996, 72].

Shevada *ä* fonemasi so'zlarning barcha bo'g'inlarida kela oladi. Masalan: so'lak – *ä:päžäk*, tikan ~ *tikänäk*, *käpä:näk* (kiyim turi: *Käpä:n kä:jäñ kä:mäjdi*, *käpä:näk kä:jäñ kä:lädi*) va boshqalar.

Shevada *ä* fonemasi adabiy til va Toshkent shevasidagidek til orqa *q, g', x* undoshlari bilan yondosh kela olmaydi, chunki shevada singarmonizm qonuniyati amalda bo'lib, til orqa undoshlaridan keyin til orqa *a* fonemasi keladi: *qa:lam*, *qara*, *qattiq*, *yam*, *xat*, *xabar*.

Shevada *ä* unlisi ba'zi so'zlar va affikslarda boshqa unlilar bilan fonetik moslikni hosil qiladi:

ä – *a* mosligi. Tayanch shahar shevalari va adabiy tildagi til oldi *ä* unlisi o'rnida *a* fonemasi keladi: *asal* ~ *asal*, *qora* ~ *qara*, *zamon* ~ *zaman*, *olma* ~ *alma*, *qalpoq* ~ *qalpaq*, *anor* ~ *anar*, *oyna* ~ *ajna*, *bog'cha* ~ *ba:qča*, *oshtaxta* ~ *a:štaxta*, *qadam*, *sadaqa*, *ata*(moq) ~ *a:da*;

ä – *i/i'* mosligi: *kalit* ~ *kilit*, *zanjir* ~ *zinžir*, *bitkaz* ~ *pitkiz*, *otkaz* ~ *otkiz*;

ä – *e* mosligi: *yangi* ~ *jeñi*, *yanga* ~ *jeñä*, *ayt* ~ *e:d*.

ä: unlisi. Adabiyotlarda, xususan, Y.D.Polivanov maqolasida bu unlining qaysi o'rinlarda qo'llanishi to'g'risida ma'lumot berilmaydi. Bu unli birlamchi cho'ziq variantida quyidagi bo'g'inlarda keladi:

– so'zlarning birinchi bo'g'inida: *aka* ~ *ä:kä*, *mo'ri* ~ *kä:n*, *danakning mag'zi* ~ *dä:näk*, *danak* ~ *dä:šäk* (qattiq po'choq va mag'izdan iborat urug'i), *dada* ~ *dä:dä*, *xursand* ~ *mä:z*, *yashil* ~ *jä:šil*, *bir oz* ~ *sä:l*, *kekirdi* ~ *kä:kirdi*, *gä:rilläp* (maqtanib), *g'o'ra* ~ *dä:včä*, *ana* ~ *ä:nä*, *bari* ~ *bä:ri*, *hamma* ~ *hä:mmä*, *hasip* ~ *hä:sip*.

– ikkinchi bo'g'inida: *maslahat* ~ *mäslä:t*, *ergashtir* ~ *äjä:rt*, *mo'l-ko'l* ~ *äjä:n*, *ulgurji* ~ *kötä:räsi*.

– uchinchi bo'g'inida: *qarab yubor* ~ *qarabä:r*, *sepib yubor* ~ *sä:pibä:r*, *bermas edim* ~ *be:mä:si:dim*, *kirmas edim* ~

kirmä:si:dim,

u fonemasi. Y. D. Polivanov uning til orqa unlisi ekanligini ko'rsatadi, xolos. Bu unli til orqa, yuqori tor, lablangan. Mazkur fonema shahar shevalari va o'zbek adabiy tilida indifferent bo'lib, **u** va **ü** unllarining birikishi natijasida hosil bo'lgan oraliq tovushdir [Ashirboyev 2021, 85]. Iqon shevasida ushbu fonema mustaqil til orqa unlisi sifatida qo'llanadi. Y. D. Polivanov bu unlining qisqa variantiga *tuttum, aruq, oyl* so'zlarini qayd qiladi, lekin u keltirgan *oq-u, qo:l-u* misollari hozirgi Iqon shevasiga xos emas, balki ikkinchi bo'g'inda **i** unlisi keladi, ya'ni bu so'zlar *oqi, qo:li* tarzida talaffuz etiladi. To'g'ri, *o:quš, qo:lum* so'zlarida ikkinchi bo'g'inda **u** unlisi labial singarmonizm qoidasiga binoan tiklanadi. Aslida **u** unlisi barcha bo'g'inlarda kela oladi: bu ~ *bul*, shu ~ *šul*, burun ~ *murun, qunduz, bultur*, tarnov ~ *qavuš*, ichketar ~ *išburuq*, ukki ~ *ba:jyuz*, kechqurun ~ *ke:šqurun*, itquyruq (yovvoyi o'simlik) ~ *i:tqu:jruq*, mushtum ~ *juduruq*, bo'yinturuq ~ *mo:junturuq*, qutuldik ~ *qutulduq*, bechora ~ *baja:yuš*, borasiz-ku ~ *barasiz-yu*, bordik-ku ~ *bardiq-qu* kabi.

Bu unli bilan bog'liq tovush mosligi quyidagi o'rinlarda qayd qilinadi:

u - o/ö mosligi: *tuhmat ~ tö:mät, umr ~ ömur, uy ~ öj, hukumat ~ hö:kmät, hunar ~ hö:när, kuydi ~ kö:jdi, sumalak ~ sölämäk, buyrak ~ bögräk, Zuhra ~ Zö:rä, kuydirgi ~ köjdirgi, gugurt ~ kö:git, tug'di ~ to:ydı, chuqurcha ~ čo:qalaq, dumaloq ~ do:malaq, qurdi ~ qo:rdı, quyon ~ qo:jan, uloqcha ~ ola:q, yuqori ~ yoqa:ri, xurrak ~ xo:rräk, Umar ~ O:mar.* Ushbu moslik rus tilidan o'zlashgan so'zlarda ham uchraydi: *tumbochka ~ tö:mbüşkä, bulochka ~ bö:lüşkä.*

u - i mosligi: *quyuq ~ qo:jıq, burun ~ mu:rın, quduq ~ qu:dıq, quyruq ~ qu:jrıq, muruch ~ mu:rış, yulun ~ ju:lın.*

u - a mosligi: *quvdi ~ qa:vdı, quruq ~ quryaq.*

u: unlisi. Y.D Polivanov bu unlini *tu:z, su:, u:n, u:ž* (qolun **u:ži**) so'zlarida qayd qiladi. Iqon shevasida bu unli birinchi bo'g'inda aksariyat so'zlarda qo'llanadi: *chiroq ~ u:š, tut(daraxt) ~ tu:t, u:n, qasos ~ xu:n, faqat ~ qu:ruq, ro'parasida ~ tu:šıda, dudash(bir-biriga qofiyadosh ismlar) ~ du:daš.*

ü fonemasi. Y.D. Polivanov bu unli uchun **y** grafemasidan foydalangan [Поливанов 1929, 528]. U *küm, kün, jüz, sü:jgän, üš, jür* so'zlarini misol keltirgan. Bu unli old qator, yuqori tor, lablangan bolib, shevada faol qo'llanadi. Ma'lumki, bu unli singarmonizmli shevalarga xosdir [Решетов, Шоабдурахмонов 1978, 60]. Iqon shevasida ushbu fonema **u** orqa qator fonemasining kontrast jufti sifatida mavjud: *tuz(moq) ~ tüz, kul(moq) ~ kül, tush ~ čüş, sovqotdi ~ üšüdi, kalish ~ kä:lävüş, jügürdi, türtünip, bügün//bügin, guruch ~*

gürüş kabi.

ü: unlisi. Bu unlini Y.D. Polivanov *tü:š* soʻzida keltiradi. Shevada ushbu unli keng qoʻllanadi: ovoz ~ *ü:n*, uch ~ *ü:š*, tun ~ *tü:n*, tugma ~ *tü:gmä*, sovuq urishi ~ *ü:šük*.

Shevada ayrim soʻzlarda *ü* ~ *ö* mosligi mavjud. Masalan: *uy* ~ *ö:j*, *gugurt* ~ *kö:güt*, *kuydi* ~ *kö:jdi*, *sumalak* ~ *sö:lämäk*, *hunar* ~ *hö:nar*, *kuydirgi* ~ *kö:jdirgi*.

a fonemasi. Bu unliga Y.D. Polivanov tavsif bermaydi, faqat uning til orqa unlisi ekanligini aytadi. U – umumturkiy, til orqa, quyi keng, lablanmagan, qisqa unli. Bu jihatdan regiondagi qozoq tili, oʻzbek tilining qarluq va qipchoq shevalari bilan umumiylikka ega.

Bu unli soʻzning barcha boʻgʻinlarida kelishi mumkin:

Oʻzbekcha (turkiy) soʻzlarda:

- birinchi boʻgʻinda: menga ~ *maŋa*, bor ~ *bar*, ot(moq) ~ *at*, daraxt ~ *tal*;
- ikkinchi boʻgʻinda: qozon ~ *qa:zan*, oqshom (kecha kechqurun) ~ *a:xšam*, chopon ~ *ča:pan*, oyoq ~ *a:jaq*, tomoq ~ *ta:maq*, yomon ~ *ja:man*, yogʻoch ~ *a:yaš*, pochka ~ *ba:laq*, tovoq ~ *ta:baq*;
- uchinchi boʻgʻinda: orqalab ~ *a:rqalap*, chanoq ~ *qava:žaq*, boʻsagʻa ~ *bo:saya*, boshbarmoq ~ *ba:šmaltaq*, dalbasa (ogʻziga kelganini aytish) ~ *dalba:sa*, koʻrshapalak ~ *yarya:nat*.

Forscha soʻzlarda: bozor ~ *ba:zar*, atala ~ *arda:p*, arzon ~ *arza:n*.

Arabcha soʻzlarda: osmon ~ *a:sman*, amal ~ *amal*, *asal*, *aql*, *axva:l*.

a: unlisi – **a** unlisining choʻziq varianti boʻlib, asosan, soʻzning birinchi boʻgʻinida qoʻllanadi, lekin keyingi boʻgʻinlarda ham uchraydi, ular quyidagi oʻrinlarda qayd qilinadi: aka ~ *a:ya*, yogʻ ~ *ma:j*, ov ~ *a:v*, os(moq) ~ *a:s*, och ~ *a:j*, qosh ~ *qa:š*, bash ~ *ba:š*, tor ~ *ta:r*, tom ~ *ta:m*.

Y.D. Polivanov negadir *at* (loshad) va *at* (strelyay) soʻzlarida choʻziq va qisqa **a** unlisini farqlamagan [Поливанов 1929, 530]. Bizningcha, birinchi holatda *a:t* yozilishi maqsadga muvofiq edi.

Shuni taʼkidlash lozimki, boshqa shahar shevalarida faol qoʻllanadigan **ā** (ǎ) unlisi shevada mutlaqo qoʻllanmaydi, balki u **a** unlisiga oʻz oʻrnini toʻla boʻshatib bergan. Hatto, fors tilidan oʻzlashgan soʻzlarda ham **ā** oʻrnida **a** unlisi qoʻllanadi.

Adabiy tildagi **o** (**ā**) unlili soʻzlarda uning quyidagi oʻrinlarda tovush mosligi qayd qilinadi:

ā – **ä** / **ǎ**: mosligi: Toshkent ~ *Tä:škän*, chorak ~ *čä:räk*, kosa ~ *kä:sä*, choynak ~ *čä:jnäk*, ohak ~ *ä:k*; nozik ~ *nä:zik*, balo ~ *bä:lä*; olib ber ~ *ä:ppi*, olib kel ~ *ä:kkä(l)*, olib kir ~ *ä:kkir*.

ā – **e/e**: unlisiga mos keladi: soch ~ *če:š*, sochqi ~ *če:čüv*, soch(moq) ~ *češ*.

Shevada **a** unlisining variatsiyasi sifatida **ā(ǝ)** unlisi uchraydi qoladi, ya'ni so'zga emotsionallik ruhiyatini berishda erkalovchi so'zlarda undan foydalaniladi: ya'ni talab qilingan ayrim bo'g'inda **a** unlisi **ā:**, ba'zan esa cho'ziq **o:** unlisiga o'tadi. Bu o'rinda erkalash bilan birga iltimos, iltijo ma'nolari ham ifodalanadi. Masalan, *ajnā:naj// ajno:naj, bügün mähtäp barmaja qo:jči*.

o fonemasi. Bu fonemaga ham Y. D. Polivanov to'la tavsif bermaydi, odatdagidek, faqat uning **o:** unlisining qisqa varianti ekanligini ko'rsatadi. Bu unli orqa qator, o'rta keng, lablangan bo'lib, adabiy til va boshqa o'zbek shevalaridagi kabi so'zning faqat birinchi bo'g'inida keladi: to'q ~ *toq*, to'y ~ *to:j*, qo'ra(*qo'y qo'rasi*) ~ *qora*, bo'g'irsoq ~ *toqa:š* va boshqalar.

o: unlisi. Bu unlini Y.D. Polivanov *jo:l, jo:q, o:n, do:zax, o:d, o:dun, to:n, ro:za* kabi so'zlarda keltiradi. Y.D. Polivanov keltirgan misollardan ham ko'rinadiki, shevada ushbu unli keng qo'llanadi: angishvona ~ *o:jmaq*, to'r(baliq yoki qush ovlash uchun ishlatiladigan buyum) ~ *to:r*, sho'rlik ~ *šo:lliq*, koptok ~ *to:ppi*, tesha ~ *čo:t*, o'ta semiz odam ~ *bo:tqa* kabi. Shevada **o** fonemasi ba'zi qo'shma so'zlarda va *-doyon// do:n* sifatdosh affiksalarida keyingi va oxirgi bo'g'inlarda kelishi mumkin: shundan so'ng ~ *šu:nsō:n, ja:stiqqo:ra:di*(nikohdan bir kun avval kelinnikida bo'lib o'tadigan marosim turi), *qirqbo:yim*(o'simlik turi), chavandoz ~ *čapando:z*, sunnat to'y ~ *o:yilto:j*, biryo'la ~ *biräto:la*, qo'rqadigan ~ *qorqadoyon//qorqado:n, boradigan ~ baradoyon// barado:n, keladigan ~ kälädoyon//kälädo:n* kabi. Bu affiksning singarmonizmga bo'ysunmasligini ta'kidlaymiz. Bu unli bilan bog'liq tovush mosligi quyidagi o'rinlarda qayd qilinadi:

o - u mosligi: o'zib ~ *uzup*. *Šäri:päniñ ba:llari hä:mmädin uzup ke:dipti*.

o - ä: mosligi. Bunday moslik o'zlashgan so'zlarda qayd qilinadi: *botinka ~ pä:tiñkä, коифет ~ kä:mpit, ko'ngli ~ kä:vni*.

o - i mosligi: *traktor ~ tiräktir, kartoshka ~ kartiškä, tapochka ~ tä:piškä, lampochka ~ lämpiškä* kabi.

ö fonemasi. Uni Y. D. Polivanov **ø** grafemasi bilan beradi va old qator unlilar qatorida sanaydi. Namuna sifatida **øj** so'zini keltiradi va ushbu so'zning qator o'zbek shevalarida o'ziga xos fonetik farqlar bilan qo'llanishini ko'rsatgan [Поливанов 1929, 529]. **ö** - old qator, o'rta keng, lablangan unli. Bu unli fonema barcha singarmonizimli shevalarda qo'llanadi va Buxoro, Navoiy, Samarqand shevalarida uchraydi [Ashirboyev 2021, 27]. Mazkur fonema ushbu shevada **o** orqa qator fonemasining kontrast jufti sifatida, asosan, so'zlarning birinchi bo'g'inida keng qo'llanadi: *öt, kör, söz, köz, čönčäk, döngäläk, köpriq, köndälän, öpkä*, etik ~ *ötuk, kömäš*.

ö: unlisi. Bu unli **ö** unlisining cho'ziq varianti bo'lib, Y.D.

Polivanov uni to'rt ~ *tö:t*, ko'k ~ *kö:k*, ko'm-ko'k ~ *kö:m-kö:k*, ko'k o't ~ *kö:g-ot* so'zlarida qayd qiladi. Ushbu unliga shevada yana ko'plab misollar keltirish mumkin: *šo:rtäk* (shirinlik turi), echki ~ *ö:ški*, *qa:rašö:rik* (olxo'ring tur), *qī:zkö:rdi* (marosim nomi)...

Q.Muhammadjonov Turkiston gruppasi shevalarida *ö* fonemasining ikkinchi bo'g'ida pozitsion tarzda kelishini umumiy hodisa sifatida qaraydi va kuyov - *küjöv*, biron - *biröv*, uchov - *üçöv*, beshov - *bešöv* kabi misollar orqali ko'rsatadi [Муҳаммаджонов 1981, 24]. Avvalo, bu fikr aniqlikni talab qiladi, chunki "Turkiston gruppasi" shevalari fonetik jihatdan jiddiy farqlanadi. Qolaversa, ushbu izohlanayotgan so'zlar ayrim pozitsiyalarda ko'rinib qoladigan fonemalar emas, balki Turkiston qarluq shevalariga xos xususiyatdir. *Küjöv*, *biröv* tarzida qo'llanishi Iqon shevasida ham kuzatiladi, lekin *üçöv*, *bešöv* tarzida qo'llanishi Iqon shevasiga xos emas. Bu so'zlar Iqon shevasida *üçüsi*, *be:šisi* tarzida talaffuz qilinadi. Demak, bu kabi holatlarni "Turkiston gruppasi shevalari" uchun umumiy holat sifatida qarash haqiqatga molik emas.

Iqon shevasidagi unlilar cho'ziqligi

Yuqorida Iqon shevasidagi unlilarning miqdori, qisqa va cho'ziq unlilar hamda ularning qo'llanish xususiyatlari, adabiy tildagi unlilar bilan mosligi masalalari to'g'risida fikr yuritilgan edi. Ayni zamonda professor Y. D. Polivanov ma'lumotlariga munosabat bildirildi.

Suni aytish o'rinliki, adabiyotlarda unli fonemalarning cho'ziqligining uch tipi to'g'risida ma'lumot beriladiki, bunda asosiy e'tibor turkiy tillarga xos bo'lgan birlamchi cho'ziqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, shevada birlamchi cho'ziq unlilar keng qo'llanadi.

Birlamchi cho'ziq unlilar. Davrlar o'tishi bilan tarixiy jarayon taqozosi bilan ko'plab lahja va shevalar fonetikasi o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, Iqon shevasi vakillari qadimgi ajdodlari nutqida mavjud bo'lgan fonetik qonuniyatlarni ancha yaxshi saqlab kelganligini, shuningdek, shevada hozirda turkiy tillarning ko'pchiligida saqlanmagan birlamchi cho'ziqlik qoldiqlarini kuzatish mumkin.

O'zbek dialektologiyasiga oid adabiyotlarda unlilarning birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi cho'ziqligi to'g'risida fikr yuritiladi va shulardan birlamchi cho'ziqlik, aynan, o'g'uz guruhi shevalarining o'ziga xos xususiyati sifatida baholanadi [Ражабов 1996, 122].

B.A.Serebrennikov va N.Z.Gadjiyevalarning qayd etishicha, birlamchi cho'ziqlik hodisasi qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lib,

keyinchalik til taraqqiyoti natijasida aksariyat turkiy tillarda o'zining xususiyatini yo'qotgan va hozirda yoqut, turkman, xalaj tillarida saqlanib qolgan [Серебрянников, Гаджиева 1986, 8-9]. A.M. Shcherbak bunday unlilarning oltoy, gagauz, qirg'iz, tofalar, tuva, turkman, xakas, shor va yoqut tillarda mavjudligini ko'rsatadi [Щербак 1970, 48]. Yozma manbalarda birlamchi cho'ziq unlilarni maxsus o'rgangan olim Q.Mahmudov ilmiy manbalarda bunday unlilarning mavjud bo'lganligi va ba'zi matnlarda u grafik ifodaga ega bo'lganligini faktik misollar asosida ko'rsatib o'tadi. Uning ko'rsatishicha, birlamchi cho'ziq unlilar qadimgi yozma manbalarda so'zning dastlabki bo'g'inida asosiy pozitsiyada qo'llanishi tayin bo'lgan [Махмудов 1983, 11-14]. Q.Sodiqov ham birlamchi cho'ziqlikning keyingi hodisa emas, balki azaldan borligini ta'kidlaydi [Sodiqov 2009, 118].

Shuningdek, Q.Muhammadjonovning birlamchi cho'ziq unlilar qadimgi turkiy tilga xos xususiyatni yoki so'nggi hodisami degan masalada, keyingi hodisa emasligi haqidagi fikrlari ham o'rinli [Муhammadjonov 1991, 31-34].

Turkologiyaga oid adabiyotlarda birlamchi cho'ziqlik hodisasi haqida gap borganida o'zbek tilining Iqon, Qorabuloq va Mankent shevalarida uchrashi tilga olingan [Решетов 1966, 7-10]. Shu bilan birga, o'zbek dialektologiyasiga oid ishlarda ham ayrim o'g'uz guruhi shevalariga birlamchi cho'ziqlik xos ekanligi qayd etilgan [Абдуллаев 1961, 131].

Qadimgi turkiy tildagi birlamchi cho'ziq unlilarini saqlab qolgan Iqon shevasidagi shu hodisaning xususiyatlarini tadqiq etish tilshunosligimiz uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalariga bag'ishlangan ishlarda birlamchi cho'ziqlik ham otlarda, ham fe'llarda qo'llanishi aytiladi, lekin keltirilgan misollarda ravish turkumiga oid so'zlar ham kuzatiladi [Абдуллаев 1965, 18].

Iqon shevasi cho'ziq unlilar mavjud bo'lgan boshqa shevalardan farqli o'laroq ularning barchasi ma'no farqlash xususiyatiga ham ega. Masalan, Xorazm o'g'uz shevasida **i** unlisi cho'ziq juftiga ega emas, **ü**, **ä** unlilarining cho'ziq jufti bo'lsa-da, ular ma'no farqlash xususiyatiga ega emas. Quyida Iqon shevasida ma'no farqlovchi xususiyatlarini saqlab qolgan cho'ziq unlilarga misollar keltiramiz:

a - a: *at* (ot, uloqtir) ~ *a:t* (ism), *bar* (bormoq) ~ *ba:r* (mavjudlik), *žaj* (o'rin) ~ *žaj* (sekin), *qaš* (qoch) ~ *qa:š* (qosh), *taši* (tashimoq) ~ *ta:ši* (toshi), *qap* (qopmoq) ~ *qa:p* (qop), *aš* (ochmoq) ~ *a:š* (ochlik), *jaz* (yozmoq) ~ *ja:z* (yoz fasli), *aq* (oqmoq) ~ *a:q* (oq rang); **ä - ä:** *kär* (kermoq), *kä:r* (*kä:ri* *kä:gändä* -hushiga kelganda); **u - u:** *uš* (uchmoq) ~ *u:š* (chiroq), *tut* (tutmoq) ~ *tu:t* (tut daraxti); **ü -**

ü: *tüş* (tushmoq) ~ *tü:š* (tush ko'rmog); **ï - ĩ:** *qiz* (qizimoq) ~ *qï:z* (qiz bola), *qij* (qirqmoq) ~ *qï:j* (qo'y go'ngi); **i - i:** *iš* (ichmoq) ~ *i:š* (ish), *širin* (sifat) ~ *Ši:rin* (ism), *čittäk* (qushning turi) ~ *či:ttäk* (juda kam); **o - o:** *ot* (maysa) ~ *o:t* (olov); **ö - ö:** *öt* (o'tmoq) ~ *ö:t* (o't pufagi), *kön* (ko'nmoq) ~ *kö:n* (charm), *kör* (ko'rmog) ~ *kö:r* (so'qir); **e - e:** *e:r* (er kishi) ~ *e:r* (erta), *et* (go'sht) ~ *e:d* (aytmoq).

Biz o'rganayotgan shevada birlamchi cho'ziq unlilar qaysi turkum so'zlarida va qaysi bo'g'inlarida uchrashiga to'xtalib o'tamiz.

a: unlisi ot turkumida: *ot* ~ *a:t*, *oyi* ~ *a:ja*, *ariq* ~ *a:riq*, *bobo* ~ *ba:ba*, *xola* ~ *xa:la*, *og'il* ~ *a:γul*, *oy* ~ *a:j*, *sut mahsulotlari* ~ *a:γaryan*; sifat turkumida: *oq* ~ *a:q*, *och rang* ~ *a:š*, *achchiq* ~ *a:žiq*, *ozg'in* ~ *a:zγin*, *ola* ~ *a:la*, *sariq* ~ *sa:riq*, *kelishgan* - *a:jdaq*; fe'l turkumida: *ozdi* ~ *a:zdi*, *poylamoq* ~ *a:ndidi*, *aldadi* ~ *a:ldadi*, *o'zicha mashg'ul bo'lmoq* ~ *a:rildi*, *achchig'landi* ~ *a:žindi*, *tozaladi* ~ *ta:zaladi*; ravish turkumida: *ataylab* ~ *a:daj*, *ertalab* ~ *aza:nap*, *asta* ~ *ža:j*.

ä: unlisi ot turkumida: *mo'ri* ~ *kä:n*, *danakning mag'zi* ~ *dä:näk*, *mag'iz va qattiq po'choqdan iborat urug'i* ~ *dä:šäk*, *dada* ~ *dä:dä*, *kosa* ~ *kä:sä*; *olmosh turkumida*: *bä:ri*, *hä:mmä*; sifat turkumida: *xursand* ~ *mä:z*; ravish turkumida: *sä:l*, *gohida* ~ *jä:gädä*; fe'l turkumida: *kekirdi* ~ *kä:kirdi*.

e: unlisi ot turkumida: *be:l*, *e:n*, *se:l*, *be:z*; *pe:šana*, *e:šik*; sifat turkumida: *tetik* ~ *te:dik*, *ke:η*; son turkumida: *be:š*, *je:tti*; ravish turkumida: *ke:š*, *e:r*, *ke:čä*, *te:z*; fe'l turkumida: *se:zdi*, *ke:t*, *e:rindi*, *be:lädi*.

u: unlisi ot turkumida: *u:n*, *tu:z*, *tu:t*, *mu:z*; sifat turkumida: *uzu:n*, *qu:riq*; fe'l turkumida *mu:zla*, *qu:vna*, *tu:zla*.

ü: unlisi ot turkumida: *tü:n*, *sapcha* ~ *tü:läk*, *tup* - *tü:b*, *chumak* - *sü:bäk*; sifat turkumida: *čü:žik*, *čü:rik*; fe'l turkumida: *tü:rildi*, *unmoq* - *ü:ndi*, *yo'qlamoq* - *tü:bädi*.

o: unlisi ot turkumida: *mo:jin*, *to:j*, *čo:γ*, *xola* (begona shaxsga murojaat) ~ *to:tï*, *o:t*, *xo'tik* - *xo:dïq*; sifat turkumida: *zo:r*, *šo:r*; son turkumida: *o:n*, *o:ttiz*, *to:qqiz*; fe'l turkumida: *so'ymoq* - *so:j*, *qo'rimoq* - *qo:rdï*, *o:rdï*, *to:jdi*.

ö: unlisi ot turkumida: *g'am-hasrat* ~ *kö:jnük*, *čö:l*, *qo'zilash* ~ *tö:l*, *kö:l*; sifat turkumida: *kö:k*, *gö:l*; *olmosh turkumida*: *ö:z*; fe'l turkumida: *tarqalmoq* (har tomonga) ~ *ö:rdi*, *bo'lmoq* (ikkiga ajratmoq) - *bö:ldi*.

ï: unlisi ot turkumida: *qï:j*, *qalin* (*chapan va b.*) ~ *xï:ba*, *xï:na*; sifat turkumida: *qï:jšiq*, *xï:ra*; ravish turkumida: *xï:la*; fe'l turkumida: *qï:že:tti*, *qï:jdi*.

i: unlisi ot turkumida: *ki:giz*, *i:š*, *i:n*, *i:z*; sifat turkumida: *i:rik*, *ti:rik*, *či:rik*; fe'l turkumida: *egalik qildi* ~ *bi:lädi*, *tirildi* ~ *ti:rildi*, *i:šlädi*.

O'g'uz shevalari fonetikasini o'rgangan olim F.Abdullayev

“Qarnoq shevasi fonetikasidan” nomli maqolasida: “Xorazm o'g'uz shevalarida cho'ziqlik asosan ot kategoriyasidagi so'zlarda uchraydi, fe'l turkumidagi so'zlarda uning tarqalishi nihoyatda cheklangan. Hatto, cho'ziqlikka ega bo'lgan unlisi bor otlardan fe'l yasalganda ham unlining cho'ziqligi zaiflashadi va oddiy cho'ziqlikka ega bo'lgan unliga teng bo'ladi“ [Абдуллаев 1965, 18], – deb yozadi. Biz yuqorida keltirgan misollardan ma'lum bo'ladiki, Iqon shevasida birlamchi cho'ziqlik deyarli barcha so'z turkumlarida uchraydi. Xorazm shevalaridan farqli o'laroq, cho'ziq unli mavjud bo'lgan otlardan fe'l hosil qilinganida ham yasama so'z cho'ziqlikni saqlab qoladi: *ti:zā ~ ti:zālādi*, *qa:n ~ qa:nādī*, *ba:la ~ ba:lalādī*, *mo:jīn ~ mo:jīnnādī*, *i:š ~ i:šlādī*, *a:q ~ a:γardī*, *ba:j ~ ba:jīdī*, *a:t ~ a:dādī*, *so:ra ~ so:radī*. Q.Muhammadjonovning ishlarida bu holat Janubiy Qozog'iston shevalarining o'ziga xos xususiyati sifatida qayd etilgan [Myxam-madjonov 1991, 32]. Hatto ayrim hollarda yasalish asosida cho'ziq unli mavjud bo'lmasa-da, Iqon shevasida yasama fe'lda u cho'ziq unliga aylanishi mumkin *qara ~ qara:jdī*, *boja ~ boja:dī*, *tala ~ ta:lādī*.

Adabiyotlarda cho'ziq unlilar, asosan, birinchi bo'g'inda uchrashi qayd etilgan. Iqon shevasidan to'plangan materiallar bu fikrning to'g'riligini inkor etmaydi, lekin shevada ikkinchi va uchinchi bo'g'inlarda ham birlamchi cho'ziq unli uchraydi.

Ikkinchi bo'g'indagi cho'ziq unli: *Mādi:nā*, *aza:n*, *quva:ndī xaba:r*, shunchaki ~ *āči*.; avval ~ *buru:n*, *joqa:rī*, *maza:rat*, *oqla:q*, *tinna:q*, *kosa ~ duqa:ba*, *kar ~ gāra:n*, *uyatsiz ~ bātba:q*, laqabchi ~ *misqa:lči*, kalish ~ *kālā:vüş*.

Uchinchi bo'g'indagi cho'ziqlik: *kaft ~ alaqa:n*, *isiriq ~ ādrāsma:n*, *qo'ng'iz ~ qavuzγa:n*, *qarindosh ~ tavušqa:n*, *qoryaši:n*, *qo'lbog' ~ ālakba:γ*, aksiga olib ~ *qasaxa:na*.

Ushbu shevada cho'ziqlik hatto turkiy bo'lmagan, arab va fors tilidan kirib kelgan o'zlashma so'zlarda ham uchraydi: *ba:zar*, *ba:γ*, *a:dam*, *xo:žā*, *sa:pīn*, *sa:ndīq*, *da:rī*, *a:sman*, *kō:zā*, *xa:na*, *ba:dam*, *sa:ja*, *hō:nār*, *me:rap*, *a:šiq*, *kā:sā*, *ba:la (bola)*, *asba:b*, *avla:d*, *va:da*, *lā:nāt*, *qaza:*, *maza:rat*, *arza:n*, *arda:p*, *gāra:n*, *aza:p*, *dāva:l*, *žuva:n*, *mulla:* kabi. Keltirilgan misollar o'zbek adabiy tili va tayanch shevalarda oddiy cho'ziqlikka ega, demak, mazkur shevada bunday xususiyatning kuzatilishini birlamchi cho'ziq unlilarning ta'siri bilan izohlash mumkin.

Xulosa

Iqon shevasida Xorazm o'g'uz shevalaridan farqli o'laroq, cho'ziqlik birinchi bo'g'in bilan chegaralanmasdan, ikkinchi va undan keyingi bo'g'inlarda ham kelishi mumkin. Xorazm o'g'uz shevalarida birlamchi cho'ziqlik ot va fe'l so'z turkumlarida kuzatilsa, Iqon

shevasida barcha soʻz turkumlarida mavjud.

Demak, Iqon shevasi qadimgi turkiy tilga xos boʻlgan birlamchi choʻziqlik hodisasini saqlab qolgan. Ushbu fonetik hodisa uni oʻzbek tilidagi boshqa shevalardan farqlab turadi. Shevada unililar tizimida qayd etilgan toʻqqizta qisqa va toʻqqizta choʻziq unililarning barchasi maʼno farqlash imkoniyati bor, lekin ularning maʼno farqlash koʻlami bir xil emas.

Iqon shevasida va, shu jumladan, boshqa oʻgʻuz shevalarida ham choʻziq unililarning voqelanishi qonuniyatlarini aniqlash navbatdagi vazifa boʻlib qoladi, lekin bir narsa aniqki, bunday choʻziqlik, asosan, birinchi boʻgʻinda oʻz oʻrniga ega, uning boshqa boʻgʻinlarda kelishini esa biror qonuniyat bilan bogʻlash mumkin boʻlmadi. Aftidan, oʻz-oʻzini tashkil etish – sinergetika [Шермухаммедова 2005, 171; Нурмонов, Рахимов 2013, 92] metodlarida uni tadqiq qilish lozimdir, buni kelajak koʻrsatadi.

Adabiyotlar

- Абдуллаев, Ф. 1961. Хоразм шевалари. Тошкент: Фан.
- Абдуллаев, Ф. 1965. “Қарноқ шевасининг фонетикасидан”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 18. Тошкент.
- Абдуллаев, Ф. А. *Фонетика Хорезмских говоров*. Ташкент: Фан.
- Ashirboyev, S. 2021. *Oʻzbek dialektologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim.
- Маҳмудов, Қ. 1983. “Ёзма манбаларда бирламчи чўзиқ унлилар”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 5: 11-14. Тошкент.
- Муҳаммаджонов, Қ. 1991. “Чўзиқ унлилар сўнгги ҳодисами?” *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 31-34. Тошкент.
- Муҳаммаджонов, Қ. 1981. *Жанубий Қозоғистон ўзбек шевалари*. Тошкент: Фан.
- Нурмонов, А., Рахимов, А. 2013. *Лингво-синергетикага кириш*. Тошкент: Академнашр.
- Поливанов, Е. Д. 1929. “Фонетическая система говора кишлака Икан (Туркестанский уезд)”. *Известия АН СССР* 7 (7): 529.
- Ражабов, Н. 1996. *Ўзбек шевашунослиги*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Решетов, М. М., Шоабдурахмонов, Ш. 1978. *Ўзбек диалектологияси*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Решетов, В. В. 1966. “Ўзбек шеваларининг классификацияси”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 7-10. Тошкент.
- Серебреников, Б. А., Гаджиева, Н. З. 1986. *Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков*. Москва: Наука.
- Sodiqov, Q. 2009. *Turkiy til tarixi*. Toshkent: TDSHI.
- Тўйчибоев, Б., Ҳасанов, Б. 2004. *Ўзбек диалектологияси*. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.
- Шермухаммедова, Т. 2005. *Фалсафа ва фан методологияси*. Тошкент.
- Щербак, А. М. 1970. *Сравнительная фонетика тюркских языков*. Ленинград: Наука.

On the study of the Ikan Dialectvocalism of the Uzbek Language

Zakhira Khidralieva¹

Abstract

It is stated in many sources that Uzbek dialects have a complex structure. In particular, Uzbek dialects outside the Republic of Uzbekistan are more complex and unique, i.e they belong to different groups. For example, to such groups we can include the northern Uzbek dialects, which have a relatively small area, namely dialects of the Karluk, Kipchak, and Oghuz dialects. The Ikan dialect belongs to the Oghuz dialect, which was researched by scientist Y.D. Polivanov, but his works were not continued after him. Almost a century has passed since the publication of the last article by Y. D. Polivanov regarding the given dialect, although in this period the dialect was rarely used, it is possible that certain changes have occurred. Q. Muhammadjanov expressed some views on this dialect during the study of northern Uzbek dialects, but it was not included as the research object. This article describes the system of vowels and consonants of Ikan dialect in relation to other dialects in the region, the distribution of phonetic features in other dialects, phonetic processes in the dialect, the geography of dialectal sounds.

Key words: *dialect, literary language, phoneme, sound, front vowels, back vowels.*

References

- Abdullaev, F. 1961. *Horazm shevalari*. Toshkent: Fan.
- Abdullaev, F. 1965. "Qaranoq shevasining fonetikasidan". *Uzbek tili va adabijoti* 6: 18. Toshkent.
- Abdullaev, F. A. *Fonetika Horezmskih govorov*. Tashkent: Fan.
- Ashirboyev, S. 2021. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim.
- Muhammadzhonov, Q. 1991. "Chuziq unlilar sunggi hodisami?" *Uzbek tili va adabijoti* 6: 31-34. Toshkent.
- Mahmudov, Q. 1983. "Jozma manbalarda birlamchi chuziq unlilar". *Uzbek tili va adabijoti* 5: 11-14. Toshkent.
- Muhammadzhonov, Q. 1981. *Zhanubij Qozogiston uzbek shevalari*. Toshkent: Fan.
- Nurmonov, A., Rahimov, A. 2013. *Lingvo-sinergetikaga kirish*. Toshkent:

¹Zakhira R. Khidralieva – Independent Researcher, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'i.

E-mail: xidraliyevazoxira@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-7976-1093

For citation: Khidralieva Z. R. 2021. "On the study of the Ikan dialectvocalism of the Uzbek language". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 54–68.

Akademnashr.

- Polivanov, E. D. 1929. "Foneticheskaja sistema govora kishlaka Ikan (Turkestanskiy uezd)". *Izvestija AN SSSR* 7 (7): 529.
- Razhabov, N. 1996. *Uzbek shevashunosligi*. Toshkent: Uqituvchi.
- Reshetov, M. M., Shoabdurahmonov, Sh. 1978. *Uzbek dialektologijasi*. Toshkent: Uqituvchi.
- Reshetov, V. V. 1966. "Uzbek shevalarining klassifikacijasi". *Uzbek tili va adabijoti* 1: 7-10. Toshkent.
- Serebrennikov, B. A., Gadzhieva, N. Z. 1986. *Sravnitel'no-istoricheskaja grammatika tjurkskih jazykov*. Moskva: Nauka.
- Sodiqov, Q. 2009. *Turkiy til tarixi*. Toshkent: TDSHI.
- Tujchiboev, B., Hasanov, B. 2004. *Uzbek dialektologijasi*. Toshkent: Abdulla Qodirij nomidagi halq merosi nashrijoti.
- Shermuhammedova, T. 2005. *Falsafa va fan metodologijasi*. Toshkent.
- Shherbak, A. M. 1970. *Sravnitel'naja fonetika tjurkskih jazykov*. Leningrad: Nauka.